

**SH. M. MIRZIYOYEV ASARLARIDA MA`NAVIYAT MASALALARI**

*Marupov Akobir va Abduvaitov Abduaziz  
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti  
Samarqand filiali KI22-04-guruhi talabalari  
+998936190967  
[marupovakobir6@gmail.com](mailto:marupovakobir6@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek xalqining ijtimoiy hayoti, ma`naviyati, tinch totuv hayot kechirishi va O`zbekiston rivojiga hissa qo`shayotgan o`zbek halqi insonparvarlari ma`naviyati haqida ma`lumotlar yozilgan.

**Kalit so'zlar:** ma`naviy-ma'rifiy, milliy g'oya , siyosat, iqtisodiyot, milliy qadriyatlar, gumanizm g'oyasi, mafkura haqida ijobjiy ta`sirlari haqida ma`lumotlar yozilgan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 19-yanvar kuni ma`naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha jonli efirda videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma`naviyatdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev yig'ilishda. Biz yangi O`zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma`naviyat.

Shu tariqa Sh. Mirziyyev "Yangi O`zbekiston" gazetasiga intervyu berdi va quidagi gaplarni gapirdi:" Avvalo shuni aytish kerakki, o'z yurtida ozod va erkin hayot, adolatli jamiyat barpo etishdek ulkan maqsadni o'z oldiga qo'ygan har qanday xalq, har qanday millat og'ir, mashaqqatli va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi.

Kelajakka katta umid va ishonch bilan qarab, hamisha sabr-matonat bilan yashagan o'zbek xalqi ham 1991-yil 31-avgustda muqaddas orzusiga erishdi – jonajon vatanimiz o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi"- degan so`zlarni aytди.

2021-yil 19-yanvar kuni bo`lib o`tgan Sh. Mirziyoyev ma`naviyatni yuksaltirish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi va bu yig'ilishda quidagilarni so`zladi:

"-Milliy g'oya targ'iboti, ma`naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida "Ijod" jamoat fondi negizida Ma`naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash fondi tashkil etilishi qayd etilgan" va bu jamg'armaga 120 milliard so'm ajratilib, ma`naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali amalga oshirish, milliy adabiyotimizni rivojlantirish uchun sarflanadi. Bu mablag'ning 90 milliard so'mi hududlarda

ma'naviy-ma'rifiy sohalarni rivojlantirishga, 20 milliard so'mi Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini qo'llab-quvvatlashga, 10 milliard so'mi mamlakat miqyosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil qilishga yo'naltiriladi. Shu yildan boshlab, ma'naviyat va ma'rifat sohasi ixtisosliklarini fanlar klassifikatoriga kiritish, bu yo'nalish bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash bo'yicha topshiriqlar berilgan.

***Prezident Shavkat Mirziyoyev ma'naviyat masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda milliy mafkura deganda nima tushunilishi haqida gapirib o'tdi.***

«Afsuski, hali oramizda milliy g'oyaning, ma'naviyatning mohiyatini to'liq anglab yetmaganlar, ma'naviyat kerakmi-yo'qmi deb yurganlar ham yo'q emas.

Milliy g'oya deganda eski sovet mafkurasi tasavvur qilib, labiga uchiq toshayotganlar ham yo'q emas. Bu ham haqiqat.

Lekin agar mafkura odamiy bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini, uning qadr-qimmatini ulug'lashga xizmat qilsa, nima uchun undan qo'rqishimiz kerak?

Hamma harakatlarimizning asosi – xalqimizni rozi qilish. Shu munosabat bilan ta'kidlab aytmoqchiman, biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasi – ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi» - degan so'zlarni ilgari surdi. Bu bln nima demoqchi hali halqimizda shunday insonlar borki ular ma`naviyat nimaligi, ma`naviyat nega kerak ekanligi haqida tushunishmaganlar yo'q emasligini bilib xalqimizga ma`naviyat haqida suzladи.

**Xulosa:** Sh. Mirziyoyev o`zining asarlarida O`zbekiston xalqining ma`naviyati haqidagi masalalarini ilgari surgani hamda o`zbek xalqiga kerakli bo`lgan ma`naviyatini yuksaltirish borasida qator taroqqiyotlar olib borganini tushunib bildik va o`zbek halqining boy ma`daniyatlari ham bularga yaqqol misol bo`la oladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Sh. Mirziyoyevning ma`naviyatni yuksaltirish bo'yicha yog`ilishi  
<http://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/shavkat-mirziyoyev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-manaviyatdir>
2. Umidjon Nozimjonov <https://qalampir.uz/uz/news/prezident-ma-naviyatni-yuksaltirish-buyicha-yigelish-utkazdi-31829>
3. "Yangi O'zbekiston" gazatasidagi intrviyu  
<https://daryo.uz/2021/08/17/shavkat-mirziyoyev-yangi-ozbekiston-gazetasiga-intervyu-berdi/>
4. Sh.mirziyeevning asarlari <http://ferlibrary.uz/prezident-sh-mirziyeevning-asarlari>